

XUSHYORLIK VA BEFARQLIKKA YO‘L QO‘YMASLIK - TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING MAJBURIY SHARTIDIR

Тўлабоев Шавкатжон Файратжонович

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети

Магистратура тингловчиси, майор

Annotatsiya: Ushbu maqolada terrorizm tushunchasiga tarif berilgan, turli terrorchilik aktlari ko‘rib chiqilgan, terrorchilar tomonidan qo‘lbola portlovchi qurilmalarni qo‘llash usullari terrorchilik aktlarini tahlil qilish orqali ochib berilgan, shuningdek, fuqarolarga terrorizmga qarshi kurashishi bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Terrorizm, Terrorchilik tashkilotlari, konseptual xujjatlar, qo‘lbola portlovchi qurilmalar, xushyorlik, befarqlik bilan kurashish.

Globalashuv jarayonlari qo‘zg‘atayotgan tahdidlarga qarshi kurashish jahon hamjamiyatining hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday xavflar qatoriga xalqaro terrorizm, demografik muammolar va etnik ziddiyatlar, radikal diniy uyushma va guruhlarining faoliyatlari, narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik kabilarni kiritish mumkin. Kelitirilgan xavf va xatarlarning o‘ziga xosligi shundaki, bunday illitlar bilan alohida davlat doirasida kurashish hech qanday samara bermaydi. Ushbu munosabat so‘ngi vaqtlarda yuqoridagi kabi xavf va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha turli davlatlar xavfsizlik idoralari va maxsus xizmatlari o‘rtasida hamkorlikka bo‘lgan talab keskin ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev turli formatdagi xalqaro uchrashuvlarda mungtazam ravishda, terrorizmga qarshi birgalikda kurashish masalasiga alohida e‘tibor qaratmoqdalar.

Oxirgi vaqtlarda davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimiz va mintaqamiz xavfsizligini ko‘zlab olib borilayotgan amaliy ishlar, mintaqa xavfsizligini ta‘minlash borasida salmoqli o‘rin tutmoqda.

Prezidentimiz, 2018 yilning 29-sentyabr kuni bo‘lib o‘tgan MDHga a‘zo davlatlarning rahbarlari kengashida terrorizm tahdidiga alohida to‘xtalib o‘tdilar: **“Xalqaro terrorizm tahdidining kuchayishi jiddiy tashvish uyg‘otmoqda”**. Zamonaviy terrorchi tashkilotlar katta moliyaviy resurslarga, eng yangi axborot va texnik vositalarga hamda yuqori harakatchanlikka va samaradorlikka ega bo‘lmoqdalar. Ayni vaqtda ularning YAqin sharqdan Markaziy Osiyo davlatlariga harakatlanishi tendensiyasi oshib bormoqda. Bu esa mahalliy va halqaro terrorizmning birlashayotganligini anglatmoqda. Ushbu o‘rnida terrorizmni xalqaro, ichki muammo kabilarga bo‘lish mutlaqo manosizdir. Bu

terrorizm tahdidiga siyosiy baho berishga ham uni zararsizlantirish bo'yicha kuch ishlatish choralariga ham taaluqlidir. YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, terrorizmga qarshi kurashda qurolli kuchlarning, xususan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining mas'uliyati va ulushi sezilarli darajada oshdi.

Terrorizm tahdidi bir qator me'yoriy xujjatlarda kelitirib o'tilgan. Mudofaa doktrinasi, Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy xujjatlarda terrorizm butun dunyo hamjamiyatining diqqat-e'tiboridagi asosiy muammo sifatida belgilangan.

Terrorizmning juda ko'plab ko'rinishlari bor, jumladan, Suriya va Iroqda son va texnika ta'minoti bo'yicha yuqori darajada ta'minlangan "Islom davlati" nomi ostidagi radikal islom tashkiloti tuzuldi. Bo'lib o'tgan janglar davomida terrorchilar muntazam qo'shinlarga qarshi kurashda blokpost va nazorat o'tkazish punktlariga, alohida tayanch punktlariga xujum qilish, qo'shinlar marralarini o'qqa tutish, mina va merganlar jangi kabi taktik harakatlarni qo'llashdi hamda amaliyotdan o'tkazishdi.

Ushbu terrorchi tashkilotning tarkibida ko'plab qurolli to'qnashuvlarda ishtirok etib, yuqori jang tajribasiga ega bo'lgan yollanma jangarilar ishtirok etdi. Muntazam armiya saflarida bo'lgan va o'qitilgan harbiy xizmatchilar bilan to'qnashuvlarda, jang amaliyotiga va tajribasiga ega bo'lgan yollanma jangarilarning harakatlari ko'p xollarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Ko'plab terrorchilar janglarga g'ayri ixtiyoriy ravishda tashlandi, bunda, janga kirishdan bosh tortgan jangarilarga yaqinlarining xayotiga qasd qilish bilan taxdid etilib bosim o'tkazildi. Ayrim xollarda jangarilar narkotik va psixotrop moddalar ta'sirida "zombi" xolatida janglar olib bordi. Ba'zi jangarilar xukumatdan va davlat organlarining harkatlaridan norozi bo'lib yoki shaxsiy adovati yuzasidan terrorchi tashkilotlarga qo'shilgan. Ular xalok bo'lgan qarindosh va yaqinlari uchun o'ch olish maqsadida jang olib borishdi.

2017 yilda Fransiya va Belgiya davlatlarida o'z harakatlarining to'g'riligiga ishongan va o'zlarini "*vatanparvar*" deb bilgan diniy aqidaparast terrorchi guruhlar tomondan o'qotar qurollar qo'lbola portlovchi qurilmalar yordamida amalga oshirilgan terrorchilik xuruji, davlat huquqni muhofaza qiluvchi organlari uchun kutilmagan xolat bo'ldi. Mazkur terrorchilik xuruji terrorchi tashkilotlar uchun muvaffaqiyatli huquqni muxofaza qiluvchi organ hodimlari va ayniqsa tinch aholi aholi uchun ayanchi bo'ldi.

Terrorchilar o'z terrorchilik aktlarida turli davlatlarning mudofaa sanoatida tayyorlangan va qo'lbola usulda ishlangan porlovchi qurilmalar samarali foydalanmoqdalar. Ishlash prinsipiga ko'ra bunday qurilmalar: masofadan ishga tushiriladigan, soat mexanizmlili (taymerli), sim to'siqlar orqali harakatga keluvchi, bosganda harakatga keluvchi, singanda harakatga keluvchi, tebranishda harakatga

keluvchi va boshqalardir. Portlovchi qurilmalar ichida eng xavfli bu maishiy vositalar turli o'yinchoqlar orqali yashiringan *“mina sovg‘a”*lar va bevosita odam tomonidan portlatiladigan *“Xudkush belbog‘i”* nomini olgan portlovchi qurilmalardir.

Rossiya Federatsiyasi Qrim yarimorolining Kerchi shahrida politexnika kolledji talabasi tomonidan, atirofdagilarga nafrat uyg‘ongan xolda amalga oshirilgan qonli terrorchilik harakati o‘sha vaqtdagi jamiyatdagi bir qator muammolarni ochib berdi. Oilada yolg‘iz va otasiz o‘sgan, tarbiyasiga etarli e‘tibor berilmagan bola, kunini deyarli ko‘p qismini qonli sahnalarga boy bo‘lgan kompyuter o‘yinlarini o‘ynash bilagn o‘tkazgan. Ichki dunyosi shubhali tarzda yopilq bo‘lgan o‘smirga na tengdoshlari va na o‘qituvchilar tomonidan yetarli etibor qaratilmagan. Agar shu yosh o‘smirning atrofida gilar boshqalarning muammolariga e‘tiborliroq bo‘lganda balki, voqeani oldini olishning imkoni bo‘lgan bo‘lar edi.

Hozirgi kunda barcha davlatlarda huquq-tartibot organlari tomonidan terrorchilar tomonidan guruhlar tuzish va ular tomonidan turli terrorchilik harakatlarini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish vaqtida aniqlash va bunday harakatlarning oldini olish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdalar. Biroq bunday ishlarni mahalliy aholining ko‘magisiz yetarli darajada amalga oshirib bo‘lmaydi. Terrorchilar o‘z oldiga avvalo, tinch aholi bilan qo‘shilib ketishni maqsad qilib qo‘yadilar va ma’lum davr kelmaguncha o‘z harakatlari va niyatlarini oshkor etmaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aholini ogohlikka, loqaydlikka qarshi kurashish bo‘yicha ko‘plab chaqiriq va murojaatlar fuqarolarda nafaqat o‘zi va oilasi, balki butun jamiyat hamda davlat oldidagi mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishga qaratilmoqda.

Afsuski, globallashuv jarayonining rivojlanishi bilan ko‘pchilik o‘z shaxsiy manfaatlari ortida atrofida gilar dunyoni ko‘rmaydi, atrofdlaridagi odamlarning ham o‘z muammolari bilan yashayotganliklarini, kimlardir yordam va tushunishga muhtojligini unutib qo‘yishadi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа доктринаси тўғрисида”ги Қнуни, 09.01.2018 йилдаги ЎРҚ-458-сон.
2. Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига аъзо давлатларнинг қуролли кучларини муҳандислик-техник таъминлаш соҳасида ҳамкорлик тўғрисидаги битимни тасдиқлаш тўғрисида, Қозоғистон Республикаси Ҳукуматининг 2013 йил 14 майдаги 481-сон қарори.

ЭЛЕКТРОН МАНБАЛАР:

1. <https://lex.uz>
2. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/P1300000481>